

О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLIK BURCHLARI

Toshlanov Ilyozbek Yedgorovich
Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi
“Davlat huquqiy faoliyat” yo‘nalishi
1-bosqich 29-23 guruh o‘quvchisi
Telefon: +998333012626
E-mail: tilyozbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada konstitutsiyaning bosh qomus sifatidagi o‘rni va ahamiyati, unda xalqimizning huquqiy demokratik davlat adolatli fuqarolik jamiyati, erkin va farovon hayot qurishdek orzu-havasi o‘zining to‘la ifodasini topganligi hamda fuqrolarning burchlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, mustaqillik deklaratsiyasi, inson sha’ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklar, fuqarolarning burchlari, tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros, soliq va yig‘imlar, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о роли и значении Конституции в качестве головного убора, о том, как наш народ в полной мере воплощает свою мечту о построении правового демократического государства, справедливого гражданского общества, свободной и благополучной жизни, а также об обязанностях граждан.

Ключевые понятия: Конституция, Декларация независимости, честь и достоинство человека, права и свободы, обязанности граждан, историческое, духовное, культурное, научное и природное наследие, налоги и сборы, защита Республики Узбекистан.

Abstract: This article will talk about the role and importance of the Constitution as a prime minister, in which the desire of our people to build a legal democratic state fair civil society, a free and prosperous life is fully expressed, as well as the duties of the citizens.

Key concepts: Constitution, Declaration of independence, honor and dignity of man, rights and freedoms, duties of citizens, historical, spiritual, cultural, scientific and natural heritage, taxes and fees, protection of the Republic of Uzbekistan.

Mamlakatimizda mustaqillikning o‘tgan o‘ttiz ikki yili mobaynida olib borilgan, amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlarda, qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarda inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etish g‘oyasi o‘z ifodasini topib, barcha sa’yi-harakatlarning bosh mezoni bo‘lib kelmoqda. Xususan, Bosh Qomusimiz —

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadi va tamoyili har bir fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlarini ta’minlashga qaratilgani bilan e’tiborga molikdir. Bundan tashqari, Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga uyg‘unligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi muhim siyosiy, huquqiy hujjat sifatida jahonda yangi, suveren, istiqboli porloq davlat dunyoga kelganining o‘ziga xos dalili bo‘ldi.

Konstitutsiya atamasi qadimda siyosiy tuzum ma’nosini anglatgan. Konstitutsiya xuquqiy davlatning asosiy belgisi hisoblanadi. Unda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hususiyati, taraqqiyotning bosh mezonlari, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1990 yil 20 iyunda bo‘lgan ikkinchi sessiyasida mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyada O‘zbekistonning davlat mustaqilligi e’lon qilindi. 1991 – yil 31 – avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Bunda Mustaqillik Deklaratsiyasi va Bayonot asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu qonun 17 moddadan iborat. Bu hujjatda O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida qo‘ygan ilk qadamlarining huquqiy asosi yaratildi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra uni Muvaqqat Kichik Konstitutsiya deb ta’riflash mumkin. Mazkur qonunning yutug‘laridan biri birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi fuqoroligi joriy etildi. Ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan qat’iy nazar bir xil fuqarolik huquqlariga egaligi hamda ularning Respublika Konstitutsiyasi va Qonunlari himoyasida bo‘lishi qayd etildi.¹

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq, 11-sessiyasida (1992 yil, 8-dekabr) huquqiy va muhim ahamiyatga molik xujjat - Mustaqillik konstitutsiyasi qabul qilindi. U iqtisodiyotda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ma’naviy hayotda chuqur islohotlar o‘tkazish uchun puxta huquqiy poydevor yaratdi.

Konstitutsiyada eng avvalo, o‘zbek millatining tarixiy an’analari, huquqiy tafakkuri o‘z aksini topgan.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi jaxon hamjamiyatining inson huquqlari sohasidagi yutug‘larini to‘la mujassam qiladi. Ushbu Konstitutsiya inson huquqlari sohasidagi barcha muhim qoidalarni: insonning yashash, erkinlik va shahsiy daxlsizlik huquqi, mulkdor bo‘lish huquqi va boshqa shu kabi huquqlarni o‘z ichiga olgandir.

Bizning Konstitutsiyamiz nafaqat yuridik hujjat, balki u milliy mafkuramizning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy asosini tashkil etuvchi umuminsoniy g‘oyalarga xizmat qiladi.

¹ <http://taqvim.uz/uz/library/view/44>

Davlat va jamiyat rivojlanishining muhim yo'nalishlarini va ularning tuzilishlarini belgilab beradigan, tartibga keltiradigan oliy yuridik hujjat konstitutsiyadir.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hamda rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi jahondagi yirik siyosatshunoslar-ekspertlar tomonidan xalqaro me'yorlarga to'la javob beradigan mukammal hujjat sifatida tan olingan.

Xalq manfaatlarini kafolatlovchi Bosh Qomusimiz boshqa yangi mustaqil davlatlar konstitutsiyalaridan tubdan farq qilib, o'tish davrigagina mo'ljallanmasdan, balki davlat va jamiyat faoliyatining barcha yo'nalishlarini belgilab beruvchi dasuriy hujjat sifatida ham yuksak e'tiborga sazovar bo'ldi.

Farovon turmushimiz rivojida, Vatanimiz va xalqimiz taqdirida Konstitutsiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Konstitutsiyamizni nafaqat ta'riflaganda, balki qoidalarni moddama-modda ro'yobga chiqarish asosida uni hayotimiz qomusi deb bilishimiz va qadrlashimiz katta ahamiyatni kasb etadi.

Konstitutsiyamizda xalqimizning huquqiy demokratik davlat adolatli fuqarolik jamiyati, erkin va farovon hayot qurishdek orzu-havasi o'zining to'la ifodasini topgan. Unda hayotimizning garovi bo'lmish tinchlik, osoyishtalik, totuv hayotning asoslari belgilab berilgan. Fuqarolarning huquq va burchlari bir – biriga uyg'unlashtirilgan. Eng muhimi, inson huquqi, inson erkinligi mustahkam muhrlab qo'yilgan.

1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lamini kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.²

O'zbekiston Respublikasi yangi tahriridagi Konstitutsiyasining XI bobi³ Fuqarolarning burchlari deb nomlanib, u o'z ichiga 6 ta moddani olgan.

Jumladan, 59-moddasida barcha fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajarashlari lozimligi aks ettirilgan. Tabiiyki, O'zbekiston Respublikasi mazkur Konstitutsiyada ko'rsatib qo'yilgan huquqlaridan foydalanish barobarida ma'lum bir majburiyatlarni, burchlarni so'zsiz bajarishlari, unga rioya etishlari shartdir. Aks holda o'z burchlarini bajarmasliklari yoki unga rioya qilmasliklari qonunchilikka muvofiq tegishli javobgaliklarni ham keltirib chiqaradi.

² <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.

Konstitutsiyaning 60-moddasida fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanliklari o'z ifodasini topgan bo'lib, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmasliklari, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatiga hurmatsizlik bilan qarash hamda unga tajovuz qilish ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi yoki jinoyat kodeksining tegishli moddalaridagi javobgarliklarga sabab bo'ladi.

Konstitutsiyaning 61-moddasida fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart deb ko'rsatib qo'yilgan.

Bundan tashqari tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Konstitutsiyaning 62-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur ekanliklari belgilangan bo'lib, bugungi global iqlim o'zgarishlari va ekologik tahdidlar kuchayib borayotgan bir paytda ushbu normaning ahamiyati nechog'lik dolzarb ekanligini sharoitning o'zi ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi 754-XII-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni⁴ning 12-moddasida ham ushbu konstitutsion norma o'z ifodasini topgan. Zero unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi aholisining o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga, ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega ekanligi hamda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shartligi belgilangan.

Konstitutsiyaning 63-moddasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shartligi belgilangan. Ma'lumki, soliqlar davlat budjet harajatlarining asosiy manbai hisoblandi va soliqlarni, yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi yoki jinoyat kodeksining tegishli moddalaridagi javobgarliklarga sabab bo'ladi.

Shunday bo'lsa-da, Konstitutsiyada o'z navbatida soliq va yig'implar ham adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi keraligi qat'iy ko'rsatib qo'yilgan.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг 09.12.1992 йилдаги 754-XII-сон "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/107115>.

Konstitutsiyaning 64-moddasida navbatdagi fuqarolik burchi, ya'ni O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi ekanligi hamda fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

Ushbu qoida talablari O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 436-II-son Qonuni⁵ da o'z aksini topgan bo'lib, unga muvofiq, umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to'ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi deb belgilab qo'yilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari salmoqli darajada kengayganligini ko'rish mumkin, biroq burchlarimiz o'sha-o'sha faqat bizlardan Yangi O'zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti uchun sho' burchlarimizga qat'iyat bilan yondoshib, fidoiy va vatanparvar bo'lishligimiz talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi 754-XII-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/107115>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 436-II-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/78717>.
4. <http://taqvim.uz/uz/library/view/44>.
5. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>.

⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги "Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида"ги 436-II-сон Қонуни <https://lex.uz/docs/78717>